



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ERKAK JINSIGA XOS EVFEMIZMLAR: O'ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA

Yuldosheva Vohida Nazarovna

ToshDO'TAU doktoranti,

yohida88@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179689>

Annotatsiya. Maqolada erkak jinsiga oid evfemizmlar o'zbek va nemis tillari misolida tahlil qilinadi. Erkaklarning ijtimoiy maqomi, jinsiy stereotiplar va ijtimoiy rollar evfemizmlar orqali tasvirlanadi. Maqola erkaklarni tavsiflovchi evfemik birliklarning tematik guruhlariga bo'linishini, shu jumladan ayollar bilan muvaffaqiyatga erishgan erkaklar va noan'anaviy jinsiy hayot tarziga ega erkaklar haqidagi evfemizmlar haqida gap boradi. Bu evfemizmlar jamiyatning qadriyatlar tizimi va kommunikatsion ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Evfemizm, erkak jinsiga oid evfemizmlar, til va madaniyat, ijtimoiy rollar, zamonaviy leksik birliklar, ijtimoiy maqom.

Kirish. Erkak qiyofasini tasvirlaydigan evfemizmlar, xuddi ayol qiyofasini tasvirlaydigan evfemizmlar bilan bir xil darajada, har bir tilda so'zlashuvchi xalqlarda mavjud bo'lgan axloqiy qadriyatlar, xatti-harakatlar normalari va stereotiplarni namoyish etadi. Erkak va ayol konseptiga doir evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, erkak birliklari yuqori ijtimoiy maqomning ma'nosi bilan farq qiladi degan xulosaga keldik. Evfemizatsiya ayolning qiyofasini tasvirlash uchun ajratilganlardan farq qiladigan guruhlariga ta'sir qiladi. Bu jamiyatning "erkak" va "ayol"ga bo'lgan munosabatidagi tafovut, shuningdek, ikkala jinsning ijtimoiy rolidagi farqlar bilan bog'liq. Erkak jinsi birliklari ma'no jihatidan yuqori ijtimoiy maqomga egaligi bilan farq qiladi. Evfemizatsiya hodisasida ayolga xos xususiyatlar ko'p uchrasada, ammo erkaklarni ifodalovchi evfemik birliklar ham mavjud.

Asosiy qism. Evfemizmning gender xoslanishi ayol va erkakka nisbatan jamiyatning munosabatiga hamda ularning ijtimoiy roliga bog'liq. Shunday qilib, tahlil qilingan evfemistik birliklar asosida biz erkaklarni tavsiflovchi quyidagi guruhlariga ajratamiz:

1. **ayollar bilan muvaffaqiyatga erishgan erkaklarni tavsiflovchi evfemik birliklar.**

2. **noan'anaviy jinsiy hayot tarziga ega erkaklarni ifodalovchi evfemik birliklar.**

Har ikki madaniyatda ham oila jamiyatning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Oiladagi kelishmovchilik sababli er yoki xotinning bir-biridan uzoqlashuvi kuzatiladi. Nemis tilida lingvomadaniy muhitida oila ayolning "hushtor"i ma'nosini beruvchi evfemizmlarga duch kelamiz. Bu evfemizmlar xiyonatni "pardalash"ga xizmat qiladi:



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

der Bekannte (tanish) – ayolning erkak do'sti, **Hausfreund** (xonadon do'sti) – ayolning hushtori. **Yolg'onchi er** metaforik tarzda **Hirsch** (kiyik) evfemizmi orqali ifodalanadi, chunki bu atama yolg'onchi er ramzini kiyikning shoxlar orqali qiyoslashga asoslangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, biz tahlil qilayotgan birinchi guruh ayollar jamiyatida mashhur bo'lgan erkaklarni tavsiflovchi evfemistik birliklar eng ko'p sonli bo'lib, tilda turli shakllarda amalga oshiriladi. Misollar: **Frauenheld, Schürzenjäger, Weiberheld, Verehrer, Kavalier, Frauenliebling, Liebhaber, Freier**. Bu birliklar ayollarni ko'nglini oluvchi, ayolparast erkak, hushtor, xotinboz ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, bu birliklar orasida xorijiy so'zlar – **Womaniser, Ladykiller** ham uchraydi. Ko'pincha, umumiy otlarga aylangan ismlar ayollar orasida mashhur bo'lgan erkaklarni tasvirlash uchun ishlatiladi, masalan: **Don Juan, Casanova, Belami**¹.

Bunday evfemizmlar asosida siyosiy xushmuomalalikni anglash, jamiyatdagi kommunikativ ziddiyatlardan saqlanish yotadi. Erkaklar obrazini ifodalovchi zamonaviy evfemizmlarni ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash joizki, nutqdagi mazkur leksik birliklar jamiyat inkor etadigan qo'pol, salbiy so'zlarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, erkaklar jamiyatini xush ko'radigan erkakni **gomoseksualist, xotinchalish, xotinak** kabi disfemizmlar bilan ifodalash mumkin.. Shuningdek, **hez, hezalak** so'zlari o'rniga **pushtsiz, bezurriyot, "qizil kuyov"** kabi evfemik vositalar nutqda o'z aksini topadi. Evfemist A.Omonturdievning ishida yuqoridagilardan tashqari **bepusht, kechaligi yo'q, bichilgan, mijozi zaif, pushtsizlik**² kabi so'zlarni uchratishimiz mumkin. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabek tilidan aytilgan **mijozim zaif** birikmasi ham erkakning jismoniy holatini evfemik asosda ifodalagan. Gomoseksualizm tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan ayrim evfemik birliklar faqat shu ma'noda badiiy asarlarda o'z aksini topadi. ...*Rahimjon besoqoli bilan sarf qilub, uyig'a o'n-o'n besh kunda kelsa kelub, kelmasa samovar va no'mirlarda Rahimjonni ayshini surib yurar edi.* (A.Qod. "Juvonboz")³. Bunday evfemizmlarni B.Larin maishiy evfemizmlar sirasiga kiritadi va bu evfemalarda "inson anatomiyasi va fiziologiyasida sohasidagi tushunchalarni cheklash" xususiyati

¹ Dominik Pietzcker: „Frauenheld“. In: Compendium heroicum. Hg. von Ronald G. Asch, Achim Aurnhammer, Georg Feitscher und Anna Schreurs-Morét, publiziert vom Sonderforschungsbereich 948 „Helden – Heroisierungen – Heroismen“ der Universität Freiburg, Freiburg 03.05.2019. DOI: 10.6094/heroicum/frhd1.0

² Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг кискача эвфемик луғати. – Тошкент, 2006. – 67-б.

³ Qodirova X., O'zbek tilida evfemizm va disfemizm [Matn] : uslubiy qo'llanma, Toshkent: Bookmany print, 2022. – 15 b.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ustunlik qiladi hamda og'zaki nutqda keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi⁴, deya uqtiradi. Nemis tilida so'zlashuv uslubidagi evfemizmlar asosan gomoseksualistlarning boshqachaligini ko'rsatadi: **Verkehrter (xato qiluvchi), Irrläufer (noto'g'ri yuruvchilar), das dritte Geschlecht (uchinchi jins), vom anderen Bahnsteig sein (boshqa yo'ldan yurmoq), Kollege von der anderen Fakultät (boshqa fakultetdagi hamkasb), Warmer Bruder (iliq aka), warm (iliq), schwul va Halbseidener (ipak kiygan)** so'zlari ham keng qo'llanadi⁵. Onasining gapidan chiqmaydigan, erkatoiy, ko'ngli bo'sh, yumshoq fe'lli, mas'uliyatni bo'yniga olmaydigan erkak kishilarga nisbatan **Weichler, Weichei (muloyim), Muttersöhnchen (onasining o'g'li), Waschlappe (latta), Kümmerling (zaif, kuchsiz)** so'zlaridan foydalaniladi.

Vaterlos wächst da ein **Muttersöhnchen** heran, von allen verwöhnt, alles dreht sich um mich. (Süddeutsche Zeitung, 22, 11, 2000).

Shuningdek erkakka xos evfemizmlarning quyidagi tematik guruhlarini ko'rib chiqamiz.

Erkakning yoshini bildiradigan evfemizmlar. O'zbek xalqi keksalarga nisbatan juda hurmatli va odobli munosabatda bo'ladi, shuning uchun ko'pincha keksalar va qariyalarni tasvirlash uchun qulay va odobli so'z va iboralarni tanlanadi. Masalan, qari, qari kishi (keksa kishi) o'rniga quyidagi evfemik birliklar **qo'llaniladi: bobo, buva, oqsoqol, mo'ysafid.** Shuningdek **faxriy, yoshulli, yoshi ulug', nuroniy, otaxon, keksalik gashtini surayotgan, keksalik libosini kiygan; bahori o'tgan, bahori tugagan, oshini oshab, yoshini yashagan, sochlari oqargan, ko'zidan nur, belidan quvvat ketgan, yoshi bir joyga yetgan/borgan, sochi oqargan** kabi evfemizmlar kiradi. *G'oz turib Xorazmga qo'l berdi bir yoshulli, Miyig'ida mangulik tabassumga muhr bor.* O. Matjon. *Kulgi taqqa to'xtadi, qayoqdandir, temir hassasini do'qillatib Boboqul ota — qishloq bolalarining yaqin otaxoni paydo bo'ldi.* H. Nazir, So'nmas chaqmoqlar.

Nemis madaniyatida „qarilik quvonchli emas“ deb ta'riflansa, o'zbeklar uchun uchun keksalik g'urur, donolik, hayotiy tajriba ramzidir. Qaysidir ma'noda, agar inson Alloh rizoligi uchun shunday sharafli yoshni yashay olgan bo'lsa, bu allaqachon baxt, deb ishoniladi. Nemis tilida keksa odam **der/die Alte, der Greis, die Greisin** leksemalari, to'g'ridan-to'g'ri „**keksa odam**“ ma'nosini ifoda qiladi. Shuningdek **Rentner (nafaqaxo'r), alter Herr (qari janob), Senior (qariya)** kabi

⁴ Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ларин Б.А. Проблемы языкознания: сб.статей, посвящ.75-летию академ. И.И.Мещанинова.- Л.: ЛГУ, 1961

⁵ Luchtenberg S., Euphemismen im Deutschen. Theoretische Grundlagen, empirische Evidenz und didaktische Vermittlung, München 2019, S.204



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

evfemik birliklar uchraydi. „Qari“ semasi keksalarning barcha nomlarga xos bo‘lib, ularni boshqa yosh guruhlarini nomlaridan ajratib turadi. Umumiy foydalanishda **Senior** (katta yoshli) so‘zi eng ko‘p qo‘llanishga ega. **Keksa odamlar** (*alte Menschen*) so‘zining o‘rnini bosadigan boshqa iboralar *Betagte* (keksalar), *ältere Mitbürger* (keksa vatandoshlar), *reifere Jugend* (yetuk yoshlar).

Vorweihnachtliche Freude erlebten die betagten Bürger der Ortsteile Bödingen und Stadt Blankenburg bei Altenfesten... Neben guter Bewirtung wurde den Senioren der beiden Orte ein abwechslungsreiches Unterhaltungsprogramm geboten. (Generalanzeiger 18.12.73, S.9)

Tumanlarning keksa fuqarolari Bodingen va Blankenburg shahri keksa odamlarning festivallarida Rojdestvo oldidan quvonchni boshdan kechirdilar... Yaxshi mehmondorchilikdan tashqari, ikki joyning qariyalariga turli xil ko‘ngilochar dastur taklif qilindi. (Umumiy gazeta 18.12.73, 9-b.)

Erkakning kasb-kori nomlari bilan bog‘liq evfemizm. Kasblarni evfemizatsiya qilish kishilik jamiyatida kuzatilgan ijtimoiy tengsizlikdan kelib chiqadi, deyish mumkin. Taqabalanish kasbiy faoliyatda ham ko‘zga tashlanadi, uning paydo bo‘lishi esa ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog‘liq holatdir. Tabaqalanish, asosan, odamlarning teng bo‘lmagan resurslari, huquqlari va majburiyatlariga ega ekanligini anglatadi. Mavqe - bu ijtimoiy maqomni baholash ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, hamma obro‘li narsa jamiyatda alohida ahamiyatga ega deb qaraladi. O‘zbek va nemis tillarida kasb-korga oid bo‘lgan turli evfemik birliklar qo‘llaniladi. Umuman olganda, ikki tilda ham “*odamlarni axloqiy himoya qiluvchi, odamlarning axloqiy va ijtimoiy ehtiyojlarini aks ettiruvchi evfemizatsiya*” shakllangan⁶. Shu ma’noda ba’zi kasblar-kor nomlarini evfemalashtirib, tolerant variant bilan almashtirgan ma’qul. Hech shubha yo‘qki, obro‘si va ijtimoiy mavqei past kasblar evfemik nomlarni talab qiladi. Axlatni ortuvchi, saralovchi va tashuvchi kishi *axlat yig‘uvchi yoki ko‘cha supuruvchi* emas, *obodonlashtirish xodimi yoki obodonlashtirish ishchisi* deb yuritiladi. *Toshkent ko‘chalarida go‘yoki «Obodonlashtirish xodimlari» qiyofasida, avtoullov egalaridan pul so‘rab tilanchilik qilayotgan ayrim ayollar aniqlandi, deya xabar bermoqda Chilonzor tumani hokimligi axborot xizmati xabariga tayanib, uznews.* (<https://yuz.uz/uz/news/toshkentda-soxta-obodonlashtirish-xodimlari-aniqlandi>). Bu turga nemis tilida uchraydigan, hozirda kam qo‘llaniladigan *Goldgräber* (oltin qazuvchi) hojatxona tozalovchisi evfemizmi kiradi. Nazorat o‘tkazish punktida

⁶ Чжан Ч. Эвфемизмы в наименованиях профессий в русском и китайском языках // Грани познания. №5(10). 2010. – С. 2.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tekshiruvchi sifatida ishlaydigan keksa yoshdagi shaxs (ikkala jins vakiliga taalluqli), odatda, nutqda “xavfsizlik” so‘zi bilan ifodalanadi. G‘arbda (ayniqsa, AQShda) talab darajasi katta, biroq mashhur bo‘lmagan ko‘plab kasblar o‘z nomlarini obro‘li qilib ko‘rsatishga harakat qilishadi: *axlat yig‘uvchi – sanitariya odami, dafn etuvchi – dafn marosimida qatnashuvchi* va h.

Xulosa. Erkak jinsiga oid evfemizmlar til va madaniyatning rivojlanishiga hamda jamiyatning qadriyatlar tizimiga bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu maqolada erkaklar obrazini tasvirlovchi evfemizmlar o‘zaro turli guruhlarga bo‘lingan: ayollar bilan muvaffaqiyatga erishgan erkaklar, noan’anaviy jinsiy hayot tarziga ega erkaklar va kasblarga oid evfemizmlar. Tahlil qilingan evfemistik birliklar jamiyatda erkaklarni tasvirlashning xilma-xilligini, shuningdek, erkaklarning ijtimoiy rollari va qadriyatlaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Bu evfemizmlar o‘zaro jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida kommunikatsion ziddiyatlarni bartaraf etish, xushmuomalalikni ta’minlash va tasvirlanayotgan voqealarga ijobiy yoki salbiy baholarni kiritish maqsadida ishlatiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чжан Ч. Эвфемизмы в наименованиях профессий в русском и китайском языках // Грани познания. №5(10). 2010. – С. 2.
2. Luchtenberg S., Euphemismen im Deutschen. Theoretische Grundlagen, empirische Evidenz und didaktische Vermittlung, München 2019, S.204
3. Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент, 2006. – 67-б.
4. Qodirova X., O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm [Matn]:uslubiy qo‘llanma, Toshkent: Bookmany print, 2022. – 15 b.